

**THE ROLE OF THE HISTORICAL PERIOD AND ENVIRONMENT IN SHAPING THE  
WORLDVIEW OF ABDULLA ORIPOV****Karamatova Dilfuza Sadinovna**

Acting Associate Professor, Department of Primary Education Pedagogy

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

**Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi**

Student, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

E-mail: nigina.mahmudova06@gmail.com

**Annotation**

This article analyzes the role of the historical period and social environment in shaping the worldview of the prominent Uzbek poet Abdulla Oripov. The study examines how the poet's childhood, family upbringing, educational background, and literary environment influenced the development of his creative thinking and artistic perception. In particular, it highlights the importance of a book-loving family atmosphere and the strong appreciation for literature within his household as key factors in his personal and intellectual formation.

The article also explores the impact of the socio-political context of the Soviet era on the poet's artistic views. It reveals how, under the dominance of Soviet ideology, themes such as national identity, the concept of the Motherland, and respect for the native language found their unique artistic expression in his works.

Furthermore, the study provides a scientific analysis of the major themes in Oripov's poetry, including patriotism, national pride, historical memory, and universal human values. As a result, it is concluded that the formation of the poet's worldview was significantly influenced by the interconnection of family environment, educational processes, and the spirit of the historical period.

**Keywords**

Abdulla Oripov, worldview, social environment, historical period, Uzbek literature, national identity, Motherland, native language, spirituality.

**ABDULLA ORIPOV DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA DAVR VA  
MUHITNING ROLI****Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Oripov dunyoqarashining shakllanishida davr va muhitning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shoirning bolalik davri, oilaviy tarbiyasi,

ta'lim olgan muhiti hamda adabiy jarayonlar uning ijodiy tafakkuriga qanday ta'sir ko'rsatgani yoritiladi. Ayniqsa, shoirning ota-onasi, oila muhitidagi kitobsevarlik va adabiyotga bo'lgan mehr uning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgani ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Abdulla Oripov ijod qilgan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti ham shoirning badiiy qarashlariga ta'sir etgani tahlil qilinadi. Sovet davri mafkurasi hukmron bo'lgan sharoitda milliy o'zlikni anglash, Vatan tushunchasi va ona tiliga hurmat masalalari shoir ijodida qanday badiiy ifoda topgani ochib beriladi. Maqolada Oripov she'riyatida Vatan muhabbati, milliy g'urur, tarixiy xotira va insoniy fazilatlar asosiy mavzu sifatida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Natijada shoir dunyoqarashining shakllanishida oilaviy muhit, ta'lim jarayoni va davr ruhining o'zaro bog'liqligi ko'rsatib beriladi.

### Kalit so'zlar

Abdulla Oripov, dunyoqarash, davr va ijtimoiy muhit, o'zbek adabiyoti, milliy o'zlik, Vatan, ona tili, ma'naviyat.

Har bir ijodkorning dunyoqarashi uning yashagan davri, ijtimoiy muhit va tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiyot tarixida ko'plab shoir va yozuvchilarning ijodi u yashagan zamon ruhini o'zida aks ettiradi. Shu jihatdan o'zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lgan Abdulla Oripov ijodi ham o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Abdulla Oripov 1941-yil Qashqadaryo viloyati Kasonsoy tumani Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Orif bobo ko'pni ko'rgan, donishmand kishilardan edi. Elda e'tiborli, ko'p yillar rahbar bo'lib kelgan, so'zni topib so'zlaydiganlardan edi. Mustaqillik kunlariga yetishib, o'g'lining shon-shuhratini ko'rib vafot etdi. Onasi Turdi Karvon qizi shoirtabiat, xalq adabiyotini nozik his qiluvchi fozila ayollardan edi. Erta vafot etdi. Lekin suyakli o'g'lining birinchi kitobini ko'rib ketdi. Ehtimolki, Abdullaning kelajagini bashorat qilib ketdi. Bu tuyg'ular uning «Onajon» she'rida juda samimiy ifodalangan. So'ngroq shoir shu nomda butun bir kitob ham yozdi.

Bo'lajak shoir Neko'zdagi o'rta maktabda o'qidi. Ta'lim-tarbiyasida oila muhitining ta'siri katta bo'ldi. To'rt aka-ukaning hammasi adabiyot muxlisi edi. Kattasi institutni bitirib, maktabda dars berar, ikkitasi oliy o'quv yurtlarida o'qishar, uyida yaxshi kitoblar ko'p bo'lar edi. She'rga, kitobga mehr Abdullada maktab yoshida paydo bo'ldi. Dastlabki she'rlari o'quvchiligida bosildi. Bu holat shoirning iste'dodi juda erta shakllanganini va uning adabiyotga bo'lgan qiziqishi bolalik davridayoq namoyon bo'lganini ko'rsatadi.


Birinchi maslahatchilari akalari va muallimlari bo'lishdi. 1958 - yil o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, Abdulla Oripov tahsilni O'zbekiston Davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetining jurnalistika bo'limida davom ettiradi.

Abdulla Oripov adabiyotga lirik shoir sifatida kirib keldi. Uning dastlabki she'rlaridayoq inson ruhiyati, tabiat go'zalligi va hayot falsafasi chuqur badiiy ifoda topgan. Talabalik yillaridagi she'rlarining ba'zilari uning o'ziga xos badiiy idrokka, kuchli ehtirolarga egaligini, satrlari ravon, tabiiy, istioralari original ekanini ko'rsatdi. "Suv parisi", "Kuz xayollari", "Pushkin", "Sen bahorni sog'inmadingmi", "Buloq", "Odamlar" she'rlari bunga dalil bo'la oladi.

Talabalik yillarida shoir Labzak ko'chasining kichik boshi berk tarmoqlaridan birida, o'sha vaqtda Pushkin nomi bilan ataladigan istirohat bog'i ortida ijarada yashardi. Xonadon hovlisi tepalikdagi qiyalikda joylashgan bo'lib, undan Pushkin haykali ko'rinib turardi. Aytish lozimki, shoir yoshlikdan Pushkin she'rlarini ko'p o'qirdi. Ba'zan ovozi chiqarib, 7-8 yashar bolaga ham o'qib berardi. Bu bola men edim. Pushkinga hurmat, oshuftalik uning butun hayoti davomida saqlandi. U hayron qolarli darajada shoir tarjimai holini, uning hayotida yuz bergan yirik voqealar mayda tafsilotlargacha yaxshi bilardi. Universitetda rus adabiyoti bo'yicha dars bergan ayol domlasini minnatdorlik bilan eslardi. U o'zi va Pushkin orasida qandaydir umumiylikni his qilgan bo'lsa, ajab emas. Pushkinni yuksak kiborlar doirasi unchalik pisand qilmagan. Kelib chiqishi ona tomondan Pyotr I ga tortiq qilingan habashga bog'lanishi unga nisbatan kiborlar orasida bepisand munosabatni shakllantirgan. Ota tomondan Pushkin katta bobolari siyosiy fitnalarda qatnashgani uchun saroydan quvg'in qilinib, qashshoqlashib qolgan dvoryanlar avlodiga mansub edi.

Ijodkorning dunyoqarashi shakllanishida ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega. Abdulla Oripov ijod qilgan davrda o'zbek adabiyotida yangi avlod shoirlari shakllanayotgan edi. Bu davrda adabiy muhit ijodkorlarning badiiy tafakkurini boyitdi. Mazkur adabiy muhit yosh shoirlarning ijodiy izlanishlariga keng imkoniyat yaratib, ularning yangi g'oya va badiiy uslublar bilan ijod qilishiga zamin bo'ldi.

Shoir yashagan muhitda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash kabi g'oyalar muhim ahamiyat kasb etgan. Natijada Oripov she'riyatida Vatan taqdiri, xalqning ma'naviy dunyosi va insoniy fazilatlar markaziy mavzuga aylandi. Shoir bu mavzular orqali xalq qalbidagi tuyg'ularni badiiy ifodalashga erishdi.



Shuningdek, Abdulla Oripov ijodida davrning siyosiy va ijtimoiy sharoiti muhim rol o'ynagan. Shoir yashagan davrda sovet mafkurasi hukmron bo'lib, milliy qadriyatlar va milliy o'zlik masalalari ko'pincha ikkinchi darajaga tushib qolgan edi. Ayniqsa, Vatan tushunchasi ko'proq butun ittifoq bilan bog'lab talqin qilinar, alohida millat va xalqning o'z Vataniga bo'lgan tuyg'ulari ochiq ifodalanishi har doim ham oson bo'lmagan.

Bunday sharoitda shoir qalbida milliy gʻurur va Vatanga muhabbat tuygʻulari yanada kuchayib bordi. Natijada uning ijodida milliy oʻzlikni anglash, ona tiliga hurmat va Vatan qadri kabi gʻoyalari yetakchi oʻrin egalladi. Shoirning oʻzi ham bu jarayon haqida shunday eslaydi: “«Oʻzbekiston» qasidasining yozilishi-chi? Vatanning butun Sovet Ittifoqi, deb uqtirib turilgan bir paytda, Oʻzbekiston nima boʻldi ekan, degan savol yuragimning tubida paydo boʻlib, hoyna hoy, «Vatanim – Oʻzbekiston» deb sheʼr yozgan boʻlsam, tilimizning har qadamda yerga urilayotganini koʻrib «Ona tilimga» nomli sheʼrni yozganman”.

Ushbu fikrlar shuni koʻrsatadiki, shoirning dunyoqarashi shakllanishida nafaqat oilaviy muhit, balki u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari ham katta taʼsir koʻrsatgan. Uning sheʼriyatida Vatan, milliy gʻurur va ona tiliga boʻlgan hurmat gʻoyalari aynan ana shu davr ruhining badiiy ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov dunyoqarashining shakllanishida oilaviy tarbiya, taʼlim jarayoni, adabiy muhit hamda u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti muhim rol oʻynagan. Shoir bolalik davridan boshlab kitob va adabiyotga mehr qoʻyib ulgʻaydi, bu esa uning ijodiy tafakkurining shakllanishiga zamin yaratdi. Abdulla Oripov ijodi oʻzbek xalqining maʼnaviy hayotini, milliy qadriyatlarini va vatanparvarlik tuygʻularini badiiy ifodalagan muhim adabiy meros hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Toʻxliyev B., Karimov B., Usmonova K. Oʻrta taʼlim muassasalarining 10-sinfi va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari oʻquvchilari uchun darslik-majmua. – Toshkent.
2. Toʻxtaboyeva Eʼzoza Shokirxon qizi, Akramov Sh. Abdulla Oripov estetik qarashlarining badiiy-tarixiy omillari // Science and Innovation in the Education System xalqaro ilmiy onlayn konferensiya materiallari.
3. Oripov A. Yillar armoni: sheʼrlar va dostonlar / soʻzboshi muallifi M. Qoʻshjonov. – T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. – 592 b.
4. Ismoilova U. Abdulla Oripov fenomeni // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.